MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

O‘ZBEKISTON XUDUDIDA MUSIQA TA’LIMINING SHAKLLANISHI: TARIXIY SHAROIT VA TASHKILIY JARAYONLAR

Xumoyun Xaydarov,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
xumoyunxaydarov3030@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-2167-0353

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekiston xududida musiqa ta’limining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy va madaniy omillar yoritiladi. An’anaviy, rus va jadid maktablari faoliyati, Yevropa musiqa madaniyatining kirib kelishi, musiqa jamiyatlari hamda xususiy ta’lim amaliyotining o‘rni ko‘rib chiqiladi. Arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar asosida Turkiston Xalq konservatoriyasining tashkil etilishi, tashkiliy komissiya faoliyati, ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari bayon qilinadi.*

Kalit so‘zlar: ***Kalit so‘zlar:*** *musiqa, ta’lim, madaniyat, ma’rifat, jadidchilik, maktab, madrasa, konservatoriya, universitet, ijrochilik, cholg‘u, orkestr, konsert, nota, nazariya, havaskorlik, arxiv.*

Аннотация. *В статье рассматриваются социальные и культурные факторы, повлиявшие на становление музыкального образования на территории Узбекистана в конце XIX — начале XX века. Освещаются деятельность традиционных, русских и джадидских школ, проникновение европейской музыкальной культуры, роль музыкальных обществ и практики частного обучения. На основе архивных документов и научной литературы раскрываются история создания Туркестанской народной консерватории, деятельность организационной комиссии, цели и задачи учебного заведения.*

Ключевые слова: *музыка, образование, культура, просвещение, джадидизм, школа, медресе, консерватория, университет, исполнительство, инструмент, оркестр, концерт, нота, теория, любительство, архив.*

Abstract. *The article examines the social and cultural factors that influenced the development of music education in the territory of Uzbekistan in the late nineteenth and early twentieth centuries. It considers the activities of traditional, Russian, and Jadid schools, the introduction of European musical culture, and the role of musical societies and private tuition. Drawing on archival documents and scholarly literature, the article outlines the establishment of the Turkestan People’s Conservatory, the work of its organizing commission, and the institution’s aims and responsibilities.*

Keywords: *music, education, culture, enlightenment, Jadidism, school, madrasa, conservatory, university, performance, instrument, orchestra, concert, notation, theory, amateurism, archive.*

Ma’lumki, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar bevosita uning madaniy va ma’naviy olamida ham o‘z in’ikosini topib boradi. Mazkur kesimda XX asrning boshlarida Respublikamiz xududida ham tub o‘zgarishlar yuzaga kelganligini e’tirof etish joiz. Bunda mamlakatdagi xon va amirlik tizimi tugatilib, yangi hokimiyatining

barpo etilishi barcha jabhalardagi singari musiqa ta'limida ham zamon talabiga mos qarash va munosabatlarni yuzaga kelishi, tegishli tushuncha va atamalarning joriy etilishiga olib kelganligini aytib o'tish o'rinlidir. Mazkur jarayon Yevropa madaniyatlarining Markaziy Osiyoda asta-sekinlik bilan kirib kelishi, xususan, musiqa san'atida yangicha tamoyillarning jumladan nota yozuvi hamda cholg'u musiqasi bilan bir qatorda sahnaviy janrlarning kiritilishi bilan to'ldirilganligini aytish mumkin.

Hududda yangi maktablar vujudga kelib, o'quvchilar diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy ilmlardan ham izchil saboq ola boshladilar. Ushbu ta'lim tizimi bilan birgalikda yangi usul – jadid maktablari ham muvaffaqiyatli faoliyat olib bordilar. "Bungacha bir necha turdagi maktablar mavjud edi. Ular:

1. Musulmon dini maktablar:
a) maktab (xona) – eski maktab;
b) qorixona;
v) madrasa;
2. Rus maktablari:
a) umumiy ma'lumot maktablari;
6) kasb maktablari;
v) rus-tuzem maktablari;
g) rus tilini o'rgatish maktablari.
3. "Yangi usul" maktablari (usuli jadid)" [1. 335-b].

Yangicha uslubdagi maktablarning negizida musiqa maktablari, musiqiy dargohlar dasturi shakllanib bordi. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek musiqa madaniyati turli xil xalq qo'shiqchilik ijodi, rivojlangan milliy musiqiy an'analar, boy musiqa cholg'ularidan tashkil topadi. Shaharlar madaniy hayotida musiqa va teatr jamiyatlari sezilarli rol o'ynaydi. Bunda madaniy dam olish turlaridan biri bo'lgan damli cholg'ular orkestrlari konsertlari bo'lib turardi. Aksari hollarda orkestrlarga ularda ishlashni aktiv jamoatchilik musiqa faoliyati bilan qo'shib olib boruvchi savodxon kapelmeysterlar rahbarlik qilgan. Xuddi shular tomonidan o'zbek xalq musiqasini yozish va qayta ishlash bo'yicha dastlabki tajribalar o'tkazilgan. Bunday musiqachilar orasida Turkiston o'lkasi musiqa hayotida sezilarli iz qoldirgan N. I. Mironov, D. I. Mixaylov, A. F. Eyxgorn, V. V. Leysek va boshqalar bor edi. "O'sha davr gazetalarida esa musiqiy ta'limni tashkil etish jarayonlari, uning mashaqqatlari yoritiladi". [2]

O'lkada yevropacha hayotning rivojlanishi, turli konsert va tomoshalarning namoyishlari bilan musiqa havaskorlari soni ham oshadi. "XIX asr 80-yillarida Toshkent O'rta Osiyo mintaqasining musiqa madaniyati markaziga aylandi. Rus jamiyati xor jamiyati (1896), keyinchalik musiqa drama (1907), Simfonik kamer (1908), Filarmoniya (1913), Vokal san'ati (1916) ochildi. Puflama cholg'ulari orkestri ommabop "marsh slavyanki", "Varshavyanka", shuningdek kuylari asosida Leysek yaratgan vals Manchjurii", ota-bola Shtrauslarning valslari, tayangan ilk vals) asarlari keng tarqala boshladi" [3. 7–15-b].

Musiqa ta'limiga ixtisoslashgan o'quv dargohlari ochilgunga qadar respublikamiz hududida Yevropacha musiqa bo'yicha xususiy tarzda dars berish keng tarqalgan bo'lib, mustaqil tarzda o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchilar ushbu xizmatdan foydalanishlari mumkin bo'lardi. Bu borada o'sha davr mahalliy gazetalarning maxsus qismlarida skripka,

gitara kabi cholg‘ularni uyda alohida yakka tartibda o‘rgatish mazmunidagi e’lonlarni ko‘rish mumkin [4].

Alohida musiqa ta’limi o‘quv yurtlarini tashkil qilish XX asrning ikkinchi dekadasi oxirlariga kelib amalga osha boshladi. Bunda eng avvalo 1918-yilda tashkil etilgan Turkiston Xalq konservatoriyasini alohida e’tirof etish zarur. Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan Fond №R-414 opis №1raqamli hujjatda Turkiston Xalq konservatoriyasini tashkil etish, uning kelgusi faoliyati mazmuni aks etgan. 1918-yil 14-mayda Turkiston xalq universiteti xodimlarining birinchi umumiy yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi, unda xalq konservatoriyasini ochish maqsadida 5 kishidan iborat tashkiliy komissiya saylanadi (Karelin, Kox, Mironov, Chernyayevskiy va Sakovich). “Tashkiliy komissiyaga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Bino topish.
2. Cholg‘u asboblarni yig‘ish va sotib olish.
3. O‘qituvchilarni taklif qilish.
4. Rasmiylar va Turkiston xalq universiteti bilan bog‘lanish.
5. Aholini xabardor qilish va talabalarni konservatoriyaga jalb qilish.
6. Uchrashuvni davriy ravishda barcha tadbirlar bilan tanishtirish.
7. O‘quv qurollari bilan jihozlash” [5]

Xuddi shu kuni Xalq konservatoriyasini tashkil etish bo‘yicha komissiya o‘z ishini Turkiston Xalq universiteti kengashiga taqdim etadi.

Komissiyaning tashkiliy faoliyati davomida, yig‘ilishlardan birida Turkiston Xalq universiteti rektori A.V.Popovning hisoboti tinglanadi. U komissiya o‘z faoliyatida qanday tamoyillarga asoslanishi kerakligini bayon qiladi. Komissiya ishi, unga ko‘ra, nafaqat tashkiliy, balki konstruktiv amaliy tarzda ham bo‘lishi kerak edi. Ushbu tamoyillarga rozi bo‘lgan komissiya zudlik bilan Karl Marks ishchilar klubida musiqa kurslarini tashkil qilishni boshlaydi, shuningdek ushbu maktablarda ashula va musiqaning dastlabki nazariyasini o‘rgatishni yo‘lga qo‘yadi.

1918-yil 2-iyuldagi Xalq konservatoriyasini tashkil etish bo‘yicha komissiya yig‘ilishida Turkiston Xalq universiteti kengashi tashkiliy komissiya a’zolarini konservatoriya kengashi sifatida teng huquq va vakolatlarga ega organ sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Ushbu taklifni muhokama qilganda, tashkiliy komissiya a’zolari quyidagi tahrirda o‘z qarorlarini qabul qiladilar: “Xalq konservatoriyasini tashkil etish bo‘yicha komissiya katta kuch va katta qiyinchiliklar bilan Xalq konservatoriyasini tuzganligi sababli, konservatoriyaning kelajagi taqdiri uchun mas’ul bo‘lganlar kabi, bundan bosh tortish uchun ma’naviy huquqqa ega emasligini hisobga olinadi” [5].

Turkiston xalq konservatoriyasida darslar 1918-yil 23-iyulda boshlanadi. O‘quv dargohiga bo‘lgan qiziqishning ortishi orqali keyinchalik 1919-yildan boshlab turli to‘garaklar va kurslarni ajratish zarurati paydo bo‘ldi. “Shaharning ishchilar yashaydigan rayonida “Vokzalyoni konservatoriyasi” nomini olgan muzika maktabi tashkil etishga to‘g‘ri keldi. Eski shaharda 1919-yil 28-martda o‘zbek o‘quvchilari uchun milliy muzika asboblarida chalish o‘rgatiladigan muzika maktabi ochildi. Bu yerda o‘zbek muzikasining chinakam bilimdonlari dars berishardi. Maktab o‘quvchilari Yevropa nota sistemasi, muzika ta’limining elementlari hamda muzika nazariyasi bilan tanishtirildi” [6. 67-b]

Turkiston xalq konservatoriyasining dasturi asosan Moskva konservatoriyasi dasturlari bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun asosan yevropacha ta’lim olgan yoshlar uchungina mo‘ljallangan edi. Bu o‘quv dargohi “Turkiston xalq dorilfununining tarkibiy bir qismi bo‘lib, asosan Ovro‘polik aholi uchun tashkil etilgan edi. Shuning uchun Munavvar qori boshchiligida, Toshkentning eski shahar qismida musulmon aholi uchun “halq dorilfununi” tashkil etiladi. Aynan shu muassasa qoshida Turkiston xalq konservatoriyasining eski shahar bo‘limi ochiladi. Bu o‘quv maskaniga ilk bor milliy aholining ayrim vakillarigina qatnasha boshlaydi” [7. 65–66-b].

1918-yil 20-iyuldagi Turkiston Respublikasi Xalq ta’limi komissarligining buyrug‘i bilan V.L.Karelin Turkiston milliy konservatoriyasining direktori etib tasdiqlandi. U rahbarligida N.N. Mironov, V.M. Kox, Chernyayevskiy E.A., Arskiy G.I., V.A. Uspenskiy va V.F. Sakovichlardan iborat kengash tashkil etiladi.

1919-yil 15-fevralda hay’at yig‘ilishida Turkiston Xalq Konservatoriyasining maqsadi va vazifalari hamda Konservatoriya to‘g‘risidagi “Nizom”ga oid savol tinglanadi. Turkiston xalq konservatoriyasining umumiy maqsad va vazifalari quyidagilar edi: “Turkiston xalq konservatoriyasi bu musiqiy-ilmiy, ta’lim va tarbiya muassasasi bo‘lib, odamlarning musiqiy ta’limga bo‘lgan ehtiyojini, ham individual, ham guruhlar uchun ko‘rinishida qondiradi, tegishli dasturlarni ishlab chiqadi, ularni bajaradi, ularning bajarilishini boshqaradi va nazorat qiladi hamda mintaqaning butun musiqiy va ma’rifiy hayotini tashkil qiladi. Ushbu berilgan vazifalar ikki yo‘nalishda, ya’ni konservatoriyada va konservatoriyadan tashqarida bajariladi” [5].

Turkiston respublikasi xalq maorif komissarligi jamoasi “Konservatoriya jamoasiga Turkiston xalq konservatoriyasining maqsad va vazifalari to‘g‘risidagi fikrlarni qabul qilishni taklif etish hamda Turkiston xalq konservatoriyasi direktor lavozimiga G.I. Arskiyni tayinlash” [5] qarorini qabul qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamiz xududida musiqa ta’limining shakllanishi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar, yangi ta’lim muassasalari hamda musiqa jamiyatlari faoliyati bilan bog‘liq holda kechgan. Turkiston Xalq konservatoriyasining tashkil etilishi musiqiy ta’limni tashkiliy jihatdan yo‘lga qo‘yish, uning maqsad va vazifalarini belgilashda muhim bosqich bo‘lgan. Milliy cholg‘u ijrochiligini o‘rgatish bilan nota yozuvi va musiqa nazariyasining joriy etilishi esa mahalliy musiqiy an’analar va yangi ta’lim amaliyotlari o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent, 2005.
2. Туркестанские ведомости. – 1884-yil 14-fevral.
3. G‘ofurbekov T. Toshkentning musiqa hayoti tarixidan // Musiqa san’ati va pedagogikasi masalalari. – Toshkent, 2010
4. Туркестанские ведомости. – 1891-yilgi sonlar.
5. Markaziy davlat arxivi (MDA). R-414-fond, 1-ro‘yxat (opis). Turkiston Xalq konservatoriyasiga oid hujjatlar.
6. Yo‘ldosheva S. O‘zbekistonda muzika tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi. – Toshkent, 1985.

7. Kasimxodjayeva S. XX asrda o‘zbek tarixiy musiqashunosligi va tanqidchiligi shakllanishi: san’atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1996.

8. Xaydarov X. O‘zbek musiqa ta’limi va uning rivojlanish mezonlari. Monografiya. – Toshkent, 2026.